
Turizmni rivojlantirish yangi bosqichda

Viloyat hokimligi , Farg'ona viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi hamda "Al-Fergani Tur" firmasi hamkorligida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" shiori ostida sayohatlar tashkil etilmoqda.

Dastur asosida Quvasoy shahridagi 90-kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchilarining bir guruhi dastlab "O'zbekistonning ipak poytaxti" deya xorijliklar tomonidan ta'rif berilgan ko'hna va navqiron Marg'ilon shahridagi "Yodgorlik" fabrikasi faoliyati bilan tanishdilar. Milliy hunarmandchilikning go'zal namunalari o'g'il-qizlarda katta taassurot qoldirdi.



Navbatdagi manzil Rishton tumanidagi usta hunarmand Tohir Haydarovning kulolchilik uy-muzeyi bo'ldi. Mashhur kulol kichik sayohatchilarga o'z hunari sirlari, tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar berdi. Sopoldan tayyorlangan, inson qo'li bilan yaratilgan mo'jizaviy asarlarni tomosha qilish bolajonlar uchun juda zavqli kechdi.

Shuningdek, bolalarda qadimiy Qo'qonning tarixiy merosi bilan surdo (imo-ishora tili) tarjimai orqali tanishish imkoniyati tug'ildi. Xudoyorxon o'rdasi, majmuadagi moziy haqida so'z ochuvchi xonalar, eksponatu ko'rgazmalarga maktab-internati o'quvchilarining e'tibori qaratildi.



- Men 5 yildan buyon imo-ishora tilida tarjimon bo'lib ishlab kelmoqdaman, - deydi surdo tarjimoni M.Rahimov. - Nogironligi bo'lgan bolalar uchun mehr va g'amxo'rlik ko'rsatish naqadar muhimligini yaxshi bilaman. Sayohat va e'tibor uchun viloyat, Qo'qon shahar hokimliklariga, Farg'ona viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi, shuningdek, "Al-Fergani Tur" sayyohlik agentligiga hamda Qo'qon shahar hokimligiga qalbi kemtik o'g'il-qizlarning samimiy minnatdorchiligini yetkazaman.



Ichki turizmni rivojlantirish, obod maskanlar bilan farzandlarimizni tanishtirish yo'lidagi bu xayrli qadam yosh sayohatchilar uchun shodumonlik lahzalarini tuhfa etdi.

Sohiba ABDURAHMONOVA.

2018-04-24 12:08:14